

Institutda mehnat jamoasi konferensiyasi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti hamda kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan hamkorlikda institutda Mehnat intizomini mustahkamlash, xodimlar va talabalarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bo'yicha, hamda 2018 - 2020 yillar uchun yangi jamoa shartnomasi loyihasini muhokama qilish yuzasidan mehnat jamoasi konferensiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu konferensiyaga O'zbekiston Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi bosh mutaxassisini Begimqulova Shohida Bazarbaevna hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi Birlashgan Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi o'rinnbosari Tursunboy Niyozovlar taklif etildi. Mehnat jamoasi konferensiyasida 100 nafar delegatlardan 92 nafari qatnashdilar va 8 nafari ayrim sabablarga ko'ra qatnasha olmadilar.

Institut ish beruvchi tomonidan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Qodirjon Shavazov Ochilovich, Mehnat jamoasidan Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Irisov Farruh Qobil o'g'li hamda konferensiyamizga tashrif buyurgan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi o'rinnbosari Tursunboy Niyozov hamda O'Z.Res. Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi bosh mutaxassisini Begimqulova Shohida Bazarbaevnalar qatnashdilar.

Konferensiya kun tartibida qator masalalar belgilangan bo'lib, har ikkila tomonning ma'lumoti o'qib eshittirildi. 2017 yil mobaynida kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan bajarilgan ishlari yuzasidan ham ma'lumot berildi.

Institut mehnat jamoasi konferensiyasida 2017 yilda qilingan ishlar to'g'risidagi ma'lumotini tinglab va muhokoma qilib, shuni ta'kidlaydiki, oliy va o'rta maxsus ta'limni isloh qarorlarini hayotga tadbiq eta borib, institut rahbariyati va kasaba uyushma qo'mitasi professor - o'qituvchilari, xodimlari hamda talabalarni ijtimoiy - iqtisodiy manfaatlarini himoyalash bo'yicha ijobjiy ishlarni amalga oshirib kelganlar. Shu jumladan kasaba uyushmasi qo'mitasi ish beruvchi bilan birgalikda urush qatnashchilari, mexnat faxriylari, yubilyarlarni taqdirlash va boshqa tadbirlarni tantanali o'tkazib kelmoqda.

2016 - 2018 yillar davriga mo'ljallangan jamoa shartnomasining 2017 yil davomida bajarilgan ishlari konferensiya delegatlari orasida muhokama qilindi, shartnomada mehnatkashlarni ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilishga ta'luqli bo'lgan barcha bandlari mavjudligi ko'rib chiqilib ma'qul deb topildi va bir ovozdan tasdiqlandi.

Kelgusida Kasaba uyushmasi qo'mitasi va institut hamkorligida talabalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ko'lамини yanada kengaytirish ularni ijtimoiy himoyalash bo'yicha qator ishlar rejalashtirilganligi va amalga oshirish ishlari boshlab yuborilganligini ta'kidladi. Mehnat jamoasi konferensiyasi ishi qoniqarli deb baholandi.

